



MUSIQA SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK METODLARNING O'RNI

A'zamova Muhlisaxon A'zam qizi

Namangan davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: mazkur maqolada musiqa savodxonligini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida pedagogik metodlarning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Unda musiqiy ta'lim tizimida zamonaviy va an'anaviy uslublarning uyg'unligi, o'quvchilarda musiqiy eshituv, xotira, ritm va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metodlar yoritilgan. Shuningdek, dars jarayonida innovatsion yondashuvlar, interfaol metodlar va o'quvchi markazli ta'lim prinsiplari asosida musiqiy savodxonlikni oshirish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: musiqa savodxonligi, pedagogik metodlar, musiqiy ta'lim, interfaol usullar, innovatsion yondashuv, eshituv madaniyati, ritmik sezgi, musiqiy tafakkur.

THE ROLE OF PEDAGOGICAL METHODS IN THE DEVELOPMENT OF MUSIC LITERACY

A'zamova Mukhlisakhon

Student of Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: This article analyzes the role and importance of pedagogical methods in the process of forming and developing musical literacy. It highlights the harmony of modern and traditional methods in the music education system, effective methods that serve to develop musical hearing, memory, rhythm and creative



thinking in students. Also, ways to improve musical literacy in the classroom based on innovative approaches, interactive methods and student-centered learning principles are shown.

Keywords: *musical literacy, pedagogical methods, music education, interactive methods, innovative approach, listening culture, rhythmic intuition, musical thinking.*

Musiqqa – inson qalbining tilidir. U quvonchda ham, g'amda ham insonni yolg'iz qoldirmaydi. Shu bois musiqaga mehr qo'yish, uni tushunish va qadrlash har bir yosh avlodning estetik tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Musiqani chin dildan anglash, notalarni o'qish, ohangni eshitib ajrata olish kabi ko'nikmalar esa musiqqa savodxonligi orqali shakllanadi.

Musiqqa savodxonligi bu – faqatgina nota o'rganish emas, balki musiqiy eshituv, ritmni sezish, kuyni tahlil qilish, kuylash va ijro etish kabi murakkab qobiliyatlarni o'z ichiga oladi. Bu qobiliyatlarni shakllantirishda o'qituvchining tutgan o'rni nihoyatda beqiyosdir. Ayniqsa, o'qituvchi qanday pedagogik metodlardan foydalanishi, darsni qanday tashkil etishi bolalarning musiqaga bo'lgan munosabatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda umumiy o'rta va ixtisoslashtirilgan musiqiy ta'lim muassasalarida musiqqa savodxonligini shakllantirish dolzarb masalalardan biridir. Musiqqa faqat estetik tarbiyaning vositasi emas, balki shaxsning intellektual va ruhiy rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, musiqiy savodxonlikni shakllantirishda qo'llaniladigan pedagogik metodlar o'quv jarayonining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Musiqqa savodxonligi deganda o'quvchining nota bilimlari, ritmik sezgi, musiqqa eshituv ko'nikmalari, ashula aytish va musiqqa asarlarini tahlil qila olish qobiliyati



tushuniladi. Ushbu ko'nikmalarni shakllantirishda an'anaviy va innovatsion pedagogik metodlarning uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqiy bilimlarni o'zlashtirish deganda biz musiqaga oid bo'lgan barcha bilimlarni o'zlashtirishni tushunamiz. Xususan:

- 1) Musiqa savodi (musiqa nazariyasining boshlang'ich bilimlari);
- 2) Musiqa tinglash va tahlil qilish;
- 3) Jamoa bo'lib qo'shiq kuylash;
- 4) Musiqiy ijodkorlik (musiqaga mos harakatlar qilish, bolalar cholg'u cholg'ularida chalib, musiqaga ritmik jo'r bo'lish).

Musiqa darsining asosiy xususiyati shundaki, musiqa ta'limining to'rt faoliyati mustaqil jarayon bo'lishi bilan birga, ulamibir-biri bilan uzviy aloqada, o'zaro bog'liq ravishda olib borish kerak. Ushbu jarayonlarni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi, etishishlariga zamin yaratadi. ularni ijodiy shaxs bo'lib Darsning mohiyati, mazmuni va mavzusidan kelib chiqqan holda darsdagi biror bir faoliyat birinchi o'ringa chiqib qolishi mumkin. Musiqa darsining tuzilishi asosan, musiqiy ijrochilikni tashkil etadi, Lekin shuni unutmaslik kerakki, birgina ashula aytish uchun nota yozuvi, dinamikasi, shtrixlarini bilish zarurdir. Jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchilarda jamoatchilik, do'stlik, birdamlik kabi fazilatlar shakllanadi. Bu jarayonda butun sinf jamoa bo'lib, «bir yoqadan bgsh chiqarib» faol ishtirok etadilar. Shu tufayli musiqiy qobiliyati sust bo'lgan o'quvchilar faol va yaxshi musiqiy qobiliyatga ega bo'lgan o'quvchilarga ergashadilar. Musiqiy qobiliyat faqatgina musiqiy amaliyot, musiqa san'atiga xos bo'lgan musiqiy material va maxsus usullar orqaligina rivojlantirilishi mumkin, ya'ni aynan musiqa insonning-musiqiy hislarini uyg'otadi. Musiqa darsi har xil musiqiy nazariy faoliyatlarni o'z ichiga oladi: ashula aytish (vokal xor tarbiyasi, solfedjio),



musiqaning elemental nazariyasi (musiqa savodi), musiqa tinglash, musiqa tahlili, musiqa adabiyoti, musiqa ostida harakatlar bajarish.

Quyida biz bir darsning tuzilishini misol tariqasida keltiramiz: Darsning mavzusi - Musiqaning ifoda vositalari. Darsning turi - predmetlararo uzviylik. Darsning maqsadi:

1) ta'limiy maqsad: musiqaning ifodalovchi vositalar haqida tushuncha berish, ovoz sozlovchi mashqlar bajarish, yangi qo'shiq o'rgatish, musiqiy asar tinglash, avvalgi o'tilgan mavzulami takrorlash va mustahkamlash;

2) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarning musiqiy idrok, did, dunyoqarash va tafakkurlarini shakllantirish, musiqiy asarga va uning yaratuvchilariga nisbatan hurmat va qiziqishni uyg'otish, qo'shiq matni va musiqa ta'sirchaniigi yordamida o'quvchilarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish.

Qo'llariladigan adabiyotlar - darslik, solfejio darsligi, Darsning borishi:

1. Sinfni uyushtirish:

a) musiqiy kirish;

b) o'quvchilarni yo'qlama qilish;

v) darsning mavzusini e'lon qilish.

Amaliy ishlar:

a) ovoz sozlash mashqlari: har xil metodik usullar yordamida;

b) stakatto va legato usullarida kuylash.

2. Yangi materialni o'tish:



a) qo'shiq o'rgatish: jumialarga bo'lib, nafas va ovozni to'g'ri yo'lga qo'ygan holda;

b) intervallarni tushuntirish: har xil misol va usullar yordamida;

v) musiqa tinglash: metodik usullar yordamida - rasm chizish, bayon etish va hokazo;

g) bolalar musiqa cholg'ularida jo'r bo'lish va ritmik harakatlar bajarish; o'rganilayotgan qo'shiq yoki tinglanayotgan musiqiy asarga mos chapak chalish, bolalar cholg'ularida (doira, shiqildoq, surnaycha, metallafon...) jo'r bo'lish;

d) ijodiy vazifalar: mustaqil tarzda kuyga jo'r bo'lish uchun qaysi musiqiy cholg'u mosligini aniqlash, tinglangan kuy qanday xotira yoki tasavvurlarni uyg'otishini, tinglangan musiqiy asar qaysi ladda yozilganligini aniqlash (major yoki minor), asarning janrini aniqlash (qo'shiq, raqs, marsh), asarning o'lchovini, tempini, dinamik belgilarini aniqlash. Asardan olingan taassurotlarga tayangan holda rasm chizish.

3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

4. Uyga vazifa berish: yangi qo'shiq matnini yodlash, «Musiqa ifoda vositalari» mavzusini yodlab kelish.

Musiqa savodxonligi — bu shaxsning musiqa yozuvlarini o'qish, tahlil qilish, ijro etish va musiqiy asarlarni tushunish ko'nikmalarini o'z ichiga olgan tizimli bilimlar majmuasidir. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Notalarni o'qish va yozish;
- Ritim va metronomik sezgi;
- Musiqiy janrlar, shakllar va uslublarni anglash;
- Kuylash va asboblarda ijro etish ko'nikmalari.



2. Pedagogik metodlar va ularning turlari

Pedagogik metodlar — bu o'quvchilarga bilim berish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish usullaridir. Musiqa savodxonligini rivojlantirishda quyidagi metodlar muhim o'rin tutadi:

a) Ko'rgazmali metodlar

- Notalar, ritmik chizmalar, musiqa asarlarini tinglash orqali tushuntirish;
- Audiovizual materiallardan foydalanish.

b) Amaliy metodlar

- Ashula aytish, cholg'u chalish;
- Musiqa yozuvlarini o'qish va ijro qilish.

c) Interfaol metodlar

- Jamoaviy mashg'ulotlar (xor, orkestr);
- Musiqiy o'yinlar va musobaqalar;
- Savol-javob va munozara orqali musiqiy tafakkurni rivojlantirish.

d) Problemali o'qitish

- O'quvchining mustaqil izlanishiga yo'naltirilgan topshiriqlar;
- Tahliliy savollar asosida musiqiy asarlarni chuqur o'rganish.

3. Innovatsion metodlar

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ham musiqa savodxonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega:



- Kompyuter dasturlari (Sibelius, Finale, EarMaster) yordamida notalarni yozish va tahlil qilish;
- Onlayn darslar, musiqiy platformalar va mobil ilovalar orqali o'rganish.

4. Pedagogik metodlarning o'quvchiga ta'siri

To'g'ri tanlangan va o'zaro uyg'unlashtirilgan metodlar:

- O'quvchining musiqaga bo'lgan qiziqishini oshiradi;
- Mustaqil ijod qilishga rag'batlantiradi;
- Musiqiy madaniyatni chuqur anglashga xizmat qiladi.

Musiqqa savodxonligini rivojlantirishda pedagogik metodlarning roli beqiyosdir. To'g'ri tanlangan o'quv-uslubiy yondashuvlar o'quvchilarning musiqiy tafakkurini, estetik didini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. An'anaviy, interfaol va innovatsion metodlarning uyg'unligi o'quvchilarda mustahkam nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi. Ayniqsa, tinglov orqali eshitish qobiliyatini rivojlantirish, notalarni o'qish va yozish, cholg'u asboblarda ijro qilishga qaratilgan mashg'ulotlar musiqaga bo'lgan qiziqishni oshiradi va shaxsiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, har bir musiqa o'qituvchisi dars jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlardan samarali foydalanishi zarur. Bu esa nafaqat musiqa savodxonligini, balki milliy musiqiy merosimizga hurmatni ham mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Abdullin E. O nachalnom etape muzikainogo obucheniya v obsheobrazovatel'nix shkolax Yaponii // Muzikalnoe vospitanie v shkole, vip.9. M., 1984.
2. Abdullin E., Sipin G. Programma, ustremieimaya v budushee // «Sovetskaya muzika», 1988, KsIO.



3. Avratiner V. Obucheniya i vospitanie muzikanta-pedagoga. M., 1981.
4. Akbarov I., Xusainov T. Ill sinf musiqa darsligi uchun metodik qo'llanma. T., 1974.
5. Alaev Yu. Puti formirovaniya navikov mnogogolosnogo peniya • v detskom xore //Muzikalnoe vospitanie v shkoie, vip. 10, M., 1985.
6. Anisimov A. Dirijyor-xormeyster. L., 1976.
7. Apraksina O. Metodika muzikainogo vospitaniya v shkoie. M., 1983.
8. Apraksina.O.A. Metodika muzikainogo vospitaniya v shkoie. (Uchebnoe posobie dlya ped. institutov po spec. 2119 «Muzika i penie») M.: Prosveshenie.
9. Arismendi A. Doshkolnoe muzikalnoe vospitanie. M., 1989.
10. Archajnikova L.G. Professiya-uchitel muziki, -M.: Prosveshenie.
11. Asafev B. O xorovom iskusstve. L., 1980. -214
12. Bandina A., Popov V., Tixeeva L. Shkola xorovogo peniya. Vip.I. Dlya Shkolnikov mladshego vozrasta. M., 1981.